

UDK 37.02

Karimova Sojida Ashirali qizi, magistrant

Qarshi Davlat Universiteti

Karimova Sojida Ashirali qizi, master student

Karshi State University

**QASHQADARYO VILOYATIDAGI TURKMAN MILLIY
MADANIY MARKAZI FAOLIYATI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi turkman milliy-madaniy markazi faoliyati va turkman millatining o`ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so`zlar: Milliy markaz, Qashqadaryodagi turkmanlar, “Madaniyat markazi”, “Sarvinoz”, “Alang”, Do`stlik uyi.

Abstract: This article describes the activities of the Turkmen National Cultural Center in Kashkadarya region and the peculiarities of the turkmen nation.

Key words: National center, Turkens in Kashkadarya, “Cultural center”, “Sarvinaz”, “Alang”, Friendship House.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, har bir millat va elatning qonun oldida haqiqiy tengligini ta`minlash bilan birga ularning moddiy, ayniqsa, milliy- ma`naviy ehtiyojlarini to`la qondirish, erkin mehnat qilishlari, ma`lumot olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida huquqiy asoslab berilgan.[1] Ushbu moddada “O`zbekiston Respublikasida barcha fuqorolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, millati, tili, din, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat`iy nazar, qonun oldida teng” ekanligi ta`kidlangan.

O`zbek xalqi azaldan mehmondo`st va bag`rikeng xalq bo`lgan. Yurtimizda turli millat vaqillarining ahillikda yashab kelayotganligi ham xalqimizning olijanobligiga misoldir. Zero, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: “O`zbekistonning eng yaxshi yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday

qiyinchilik, to`siq va sinovlarni o`z kuchi va irodasi bilan yengib o`tishga qodir, deb barilla aytishga to`la asos beradi"[2] Yurtimizda millatlararo munosabatning shakllanishi va rivojlanishiga 1992-yil 24-yanvarda Vazirlar mahkamasi qarori bilan "Baynalmilal Madaniyati Markazi"ning tashkil etilishi juda katta imkoniyatlar yaratdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 23-maydagi qarori bilan Respublika baynalmilal madaniyat markazi negizida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do`stlik aloqalari qo`mitasi" tashkil etildi. Bugungi kunda respublikamizning barcha viloyatlarida milliy madaniy markazlar faoliyat yuritib kelmoqda. Qashqadaryo viloyatida ham mustaqillik yillarida milliy markazlar faoliyatiga alohida e`tibor berildi. Hozirda viloyatda beshta- arab, tojik, rus, tatar-boshqird, turkman milliy madaniy markazlari faoliyat ko`rsatib kelmoqda. Viloyatda istiqomat qiluvchi turli millat vakillari mazkur markazlar orqali o`z qiziqishlari, milliy urf-odatlarini birlashtirishgan. O`z maqsadlarini faol amalga oshirayotgan ana shunday markazlardan biri – turkman milliy madaniy markazidir. Markaz 2007-yil 8-noyabrda tashkil topgan. 2007-yildan boshlab to 2019-yil vafotiga qadar Norboy Jo`rayev markaz rahbari sifatida faoliyat yuritdi. 2019-yilda markaz rahbarligiga turkman millatiga mansub xushovoz xonanda, "Shuhrat" ordeni sohibi Umrzoq Quvvatov saylandi. Qashqadaryo viloyati turkman madaniy markazi viloyat hududida ma`naviy va ijtimoiy hayot sohalarida turkman madaniyatining saqlanishi va taraqqiyotida faol qatnashuvchi ma`daniyat va san`at, fan va ta`lim, ma`rifat, turli mehnat vakillarini ko`ngilli ravishda birlashtiruvchi jamoat tashkilotidir. Turkman milliy markazining asosiy maqsadi xalqaro aloqalar, xalqlar o`rtasida do`stlik, o`zaro hamkorlik va milliy madaniyatlarni o`zaro boyitish ishlarini rivojlantirish va mustahkamlash, turkman madaniyati, tili, an`analari, udumlari va rusumlarini saqlash va rivojlantirish bo`yicha ishlarni amalga oshirish, O`zbekiston Respublikasi hududi va tashqarisidagi madaniy markazlar, jamoat

tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, madaniyat va san`at muassasalari bilan hamkorlik qilish kabi ishlarni amalga oshirishdir. Viloyatimizda yashayotgan boshqa millat vakillari kabi turkmanlar ham o`z milliy madaniyati, tili, hunarmandchiligi, an`ana va urf-odatlarini saqlab qolishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Gazeta va jurnallar nashr etilib, radioeshittirish va teleko`rsatuvlar efirga uzatilmoqda. Qashqadaryo vohasida 50 mingdan ortiq turkman istiqomat qiladi. Ularning ko`pchiligi Mirishkor, Nishon va Muborak tumanlarida yashaydi. “Markaz to`rtta hududiy yo`nalish bo`yicha Muborak, Popuk, Chandir va Talimarjonda ish olib boradi. Mustaqillikdan oldin asosan chorvachilik bilan band bo`lgan kishilar bugun turli sohalar bilan shug`ullanayapti. Shu bilan birga ular o`z milliy urf-odatlarini emin-erkin davom ettirmoqda.”[3] Mirishkor tumani Pomiq qishlog`ida 18 ming kishi istiqomat qilsa, ularning 80 %ini turkmanlar tashkil etadi. Mazkur chegara qishloqda “Obod mahalla” dasturi doirasida keng ko`lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Shular qatorida qurib foydalanishga topshirilgan “Pomiq madaniyat markazi”da yoshlar uchun 7 ta to`g`arak faoliyat ko`rsatadi. An`anaviy baxshichilik, doira va raqs kabi guruhlarda 250 dan ortiq ishtirokchi bor. Madaniyat markazida 1,5 mingdan ortiq fondga ega kutubxona tashkil etilgan. Qashqadaryo turkmanlarining qadimiy, takrorlanmas ohang va qo`shiqlari zamonaviylashtirilib xalqqa yetkazish maqsadida 2010-yil mart oyida Mirishkor tumanida tashkil qilingan “Sarvinoz”, va “Alang” folklor guruhlari vohamizda tanilgan Nursulton Andayeva va Nurxon Boltayevalar badiiy rahbarligida ish olib bormoqda. “2011-yilda “Alang” ansambili viloyat milliy madaniy markazlari o`rtasidagi tanlovda 1-o`rinni qo`lga kiritdi. 2011-yil Xiva shahrida turkman shoiri Maxdumquli tavalludiga bag`ishlab o`tkazilgan yubeley kechasida Qashqadaryo viloyati turkman milliy-madaniy markazi vakillari ham ishtirok etishdi. [4] 2020-yilda O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarini qo`llab-quvvatlash jamoat fondining “Millatlararo totuvlik va

barqarorlikni ta`minlashda ijtimoiy sherikchilikni kuchaytirish” mavzusidagi Davlat grantlari ajratish bo`yicha 5-tanlovning Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do`stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an`analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish yo`nalishida ishtirok etish uchun turkman millati madaniyati va urf-odatlarini saqlab qolish, rivojlantirish va hunarmandchilikni yo`lga qo`yish maqsadida “Milliylik –o`zlikni anglash nishonasi” deb nomlangan grant loyihasini taqdim etdi.

2020-yil 24-aprel va 11-iyul kunlari Koson pedagogika kollejida tahsil olayotgan 157 nafar turkmanistonlik talablarning holidan xabar olindi. Koronavirus pandemiyasi tufayli yurtiga qaytolmayotgan talaba yoshlarga ruhiy dalda berildi va zarur oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi. Pandemiya tufayli yurtidan uzoqda, musofirchilikda qolgan yoshlarga qardoshlarcha mehr ko`rsatildi. Turkman milliy madaniy markazining tashabbusi bilan bayramlar, hamda o`zbek-turkman do`stligi uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan sanalarga bag`ishlab yurtimizning ta`lim muassasalarida tahsil olayotgan turkmanistonlik yoshlar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar o`tkazilib kelinmoqda. Shunday tadbirlardan biri sifatida 2020-yil 4-iyun kuni Qarshi davlat universitetida tahsil olayotgan 53 nafar turkmanistonlik talabalar bilan o`tkazilgan uchrashuvni misol keltirish mumkin. Uchrashuvda turkman va o`zbek kuy-qo`shiq-lari raqslar ijro etildi, har ikkala xalq shoirlarining ijodidan she`rlar o`qildi. An`ana tusiga kirib borayotgan bunday tadbirlarni o`tkazish xalqlarimiz va davlatlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashuviga katta hissa qo`shadi. 2020-yil 10-11 noyabr kunlari Mirishkor tumanining Chandir va Pomiq qishloqlari aholisi bilan “Yangi O`zbekiston-yangi dunyoqarash” mavzusida uchrashuvlar o`tkazildi. Bu qishloqlarning madaniyat markazlarida tuman mutasaddi xodimlari tomonidan tashkil qilingan tadbirlarda xalq hunarmandchiligi mahsulotlari ko`rgazmalari taqdim etildi. Chandir qishlog`idagi tadbirlarda 240 kishi, Pomiq qishlog`idagi tadbirda 180 kishi

ishtirok etdi. Tadbirlarda ishtirok etgan Chandir va Pomiq qishloqlari madaniyat markazlarining ijodiy jamoalari ijrosida qo`shiqlar va raqslar ijro etildi. 2020-yil 23-dekabr kuni Nishon tumanining ko`plab turkan millati vakillari istiqomat qiladigan Tallimarjon shahrida madaniyat uyi ochildi. Uning ochilish marosimida viloyatdagi barcha milliy-madaniy markaz vakillari ham ishtirok etishdi. Tadbirda yurtimizdagi xalqlar do`stligi, o`zbek-turkman iliq munosabati masalalariga ham alohida urg`u berildi. Tadbir munosabati bilan tashkil etilgan konsert dasturida viloyatimizning “Alang” va “Sarvinoz” folklor guruhlarini faol qatnashdilar.[5] Viloyatimizning Chandir qishlog`ida tug`ilib o`sgan Mirishkor tumani 31-maktab o`qigan va hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan yoshlar murabbiysi Jumadurdi Akiyev tomonidan O`zbekiston Respublikasi qahramoni Abdulla Oripovning to`plam she`rlari turkman tiliga tarjima qilindi. Shoirning 80 yillik yubileyiga munosib hissa qo`shish maqsadida mazkur to`plamni nashr qilish bo`yicha amaliy yordam ko`rsatishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Turli millatlar o`rtasida o`zaro do`stlik va hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadida 2020-yili Qashqadaryo viloyati hokimligi tashabbusi bilan Qarshi shahrida “Do`stlik uyi” binosi qurib foydalanishga topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, O`zbekistonda yashayotgan turli millatlar, shu jumladan, turkman millati vakillari vatanimizda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlarga o`zining munosib hissasini qo`shmoqda. Barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, yagona maqsadimiz - mamlakatimizni va viloyatimizni yanada ravnaq toptirish yo`lida hamjihatlikda ertangi kunga qat`iy ishonch bilan harakat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O`zbekiston, 2018. -B.29
2. Mirziyoyev Sh.M.”Erkin va farofon demokratk O`zbekiston davlatini birga quramiz” – T.: O`zbekiston, 2017-yil.-B. 488

3. Bozороva SH. Millatlararo totuvlik jamiyat boyligi. -"Qashqadaryo" gazetasi, 2015.3.11.

4. Bozороva SH. Hamjihatlik manzili. "Qashqadaryo" gazetasi, 2013. 26. 11.